

## HAYOT FAOLIYATI HAVFSIZLIGINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH VA ILG'OR XORJIY DAVLATLAR TAJRIBALARI

**Xusanova Sunbul Islomovna**

*O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi xuzuridagi Fuqaro muhofazasi instituti Pedagogika fanlari doktori, professor*

**Rajabov Laziz Choriyevich**

*O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi Akademiyasi xuzuridagi Fuqaro muhofazasi instituti magistranti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashish haqida, hayot faoliyati havfsizligi haqida, Hozirgi fan-texnika, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalar rivojlangan davrda xavfsiz hayotni ta'minlash masalalari eng dolzarb muammolardan hisoblanayotgani haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *atrof-muhit, hayot havfsizligi, texnologiya, rivojlantirish, fan-texnika, faoliyat.*

O'zbekiston Oliy ta'lim tizimida «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» mazmun-mohiyati asosida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Talabalarga tez o'zgaruvchan axborotlar ummonidan ilm javohirlarini izlab topishda dasturulamal bo'ladigan, ularda orttirilgan bilim, ko'nikma va malaka asosida kasbiy mahoratni shakllantiradigan o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish ushbu islohotlarning bosh talablaridan biridir.

Mustaqillik sharofati bilan inson manfaati, uning qadr-qimmati va sihat-salomatligiga alohida e'tibor berilmoqda. Respublikamiz mustaqillikka erishgandan buyon Prezidentimiz olib borayotgan siyosat, huquqiy demokratik davlat qurish yo'lidagi sa'y-harakatlari tufayli mamlakatimiz aholisining turmush tarzi, madaniy va ma'naviy hayot darajasi kundan kunga taraqqiy etib bormoqda.

Xalqimiz yangi ming yillikning dastlabki 10-yilligiga qadam qo'ydi. Bu esa eng avvalo yangicha fikrlash, yangicha yashash sharoitiga o'tish demakdir. Ushbu sharoitda "inson-tabiati-jamiyat" o'rtasidagi muvozanatni saqlash faqat qonun ustuvorligi va keng ko'lamlil izlanishlar asosida amalga oshirishi mumkin.

«Jamiyat fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini himoya qilishni taminlangandagina u chinakam fuqarolik jamiyatiga aylanadi. Kishi o'z huquqlarini aniq va ravshan bilishi, ulardan foydalana olishi, o'z huquqi va erkinliklarini himoya qila olishi lozim. Buning uchun avvalo mamlakatimiz aholisining huquqiy madaniyatini oshirish zarur bo'ladi»[1].

Barcha fuqarolarning huquqiy me'yorlarga rioya etishi, qonun talablarini bajarishi, qonunga itoatkorligi, demokratik fuqarolik jamiyatda huquqiy madaniyatning yuqori darajasini ko'rsatadi.

Biz o'z haq-huquqlarini taniydigan, kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni paytda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz zarur. Eng muhimi, barcha rivojlangan huquqiy

demokratik davlatlar qatori qonun asosida yashashni o'rganishimiz zarur. SHunday ekan inson mehnatini qonunlar doirasida muhofaza qilishni o'rganish har bir insonning hayotda mustaqil o'z o'rnini egallashida mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. SHu sababdan ham mehnatni muhofaza qilish qo'yidagicha ta'riflanadi: bu tegishli qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida amal qiluvchi, insonning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiena va davolash-profilaktika tadbirlari hamda vositalari tizimidan iborat.

XXI asrning boshlaridanoq xavfsiz hayotni ta'minlash masalalari eng dolzarb muammoga aylanib qoldi. Chunki ishlab chiqarish jarayonining misli ko'rilmagan yuksak taraqqiy etgan texnologiyalar bilan ta'minlanishi, tabiiy rivojlanishdagi ayrim noxush vaziyatlarning murakkablashuvi aholi salomatligi, atrof muhit tozaligi va iqtisodning barqaror rivojlanishiga tahdid solib turibdi. BMTning «Xalqaro fuqaro muhofazasi tashkiloti» hujjatlarida: «dunyoda taraqqiyot shiddat bilan rivojlanib borishi bilan yonma-yon xavf-xatar ham ortib boradi, shu bois barqaror rivojlanish kafolati bu - fuqarolar muhofazasi»dir deb yozib qo'yilgan. Shuning uchun insonlarni hayot faoliyati xavfsizligiga tayyorlashga a'loqida e'tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi muammolar tufayli inson manfaatlari muhofazasi, ayniqsa, O'zbekistonda davlat siyosatining birinchi darajasiga ko'tarildi. Shu munosabat bilan hozir O'zbekistonda ekologik harakatning tuzilishi bugungi davrning dolzarb talabi hisoblanadi. Yuqorida qayd etilgan muammolarni hal qilishda O'zbekiston ekologik harakati tomonidan «Sog'lom muhit - inson salomatligi» g'oyasining amaliy bajarilishini ta'minlash maqsadida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarni amalga oshirish jarayonida mavjud muammolarga yo'naltirilgan yondashuv nafaqat O'zbekiston, balki mintaqaning barqaror rivojlanishida eng muhim omil bo'lib, atrof muhit xavfsizligi va inson salomatligi haqidagi g'oyalarni qo'llab-quvvatlash istagida bo'lgan mamlakatimizning yetuk, barkamol avlodlarini birlashtirishga yo'naltirilgan global ahamiyatga ega harakat ekanligi e'tiborga molik. Inson hayot faoliyati xavfsizligiga katta xavf keltiradigan omillardan yana biri - bu tabiiy ofatlar, avariya va halokatlar hisoblanadi. Tabiiy ofatlarning turi xilma-xil bo'lsa-da, ammo hududimizga xarakterli bo'lgan: yer silkinishi, tuproq, qor ko'chishlari, suv toshqini, qurg'oqchilik ofatlari nafaqat insonlarning hayotiy faoliyatiga, balki ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohalariga ham katta xavf soladi. Jumladan, bino, inshootlarning qulashiga, yashash, ishlash joylarining, ekinzorlarning suv ostida qolishiga, butun boshli qishloq, aholi yashash maskanlarining tuproq ostida qolishiga, Orol dengizidan ko'tarilayotgan zaharli chang, tuzlar ekin maydonlarining cho'llanishiga, sho'rlanishiga olib kelib, oqibatda insonlarning hayot faoliyati buzilishiga va o'limiga sabab bo'lmoqda.

Havo sharoitlarining buzilishi, atrof muhitning ifloslanishi hamda tabiiy ofat avariya va halokatlarning yuz berishi natijasida insonlarning hayotiy faoliyatlari xavf-xatarlar ostida ekanligini esdan chiqarmaslik kerak. Bu degani inson hayotining har daqiqasi va har soniyasi xavf-xatar ta'siri ostida bo'ladi. Shu sababdan hozirgi kunda insonning hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlash dolzarb muammolardan hisoblanadi. Aynan bu muammoning yechimini «Hayot faoliyati xavfsizligi» fani o'rganadi. «Hayot faoliyati xavfsizligi» fanining asosiy maqsadi insonlarning xavfsiz hayot faoliyatini ta'minlashdan iborat. Buning uchun XFX o'zining tekshirish obyektlari bo'yicha qabul qilingan qonunlar va hukumat qarorlari asosida

inson hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning nazariy bilimlarini, amaliy ko'nikmalarini hamda jarohatlanganlarga tez tibbiy yordam ko'rsatish qoidalarini o'rgatadi

Hozirgi fan-texnika, zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalar rivojlangan davrda xavfsiz hayotni ta'minlash masalalari eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Chunki ishlab chiqarish jarayonlari misli ko'rilmagan yuksak taraqqiy etgan texnologiyalar bilan ta'minlanishi, insonlarning tabiiy zaxiralarga va atrof muhitga palapartishlik munosabatlari, davlatlar o'rtasida insoniyat hayotiga xavf- xatar soluvchi qurollarning qo'llanilishi, insoniyat tomonidan qo'llanilayotgan turli tuman zararli hamda zaharli moddalar va vositalar turli xildagi xavflarni yuzaga keltirib, ular insonlarning hayotiy faoliyatiga, sog'lig'iga, atrof muhit tozaligiga, iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga tahdid soladi. Jumladan, qishloq xo'jaligida hozirgi kunda qo'llanilayotgan 70 dan ortiq zaharli kimyoviy vositalarni, kimyo, neftni, gazni qayta ishlash va boshqa qator ishlab chiqarish tannoqlarida ishlatilayotgan hamda olinayotgan mahsulotlarni aytish mumkin. Shu nuqtayi nazardan mamlakatimizning eng muhim va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalari qatoridan aholining xavfsizligini ta'minlash masalalari o'ringan.

Respublikamizda chuqur iqtisodiy o'zgarish bo'layotgan bir davrda, kadrlar tayyorlashning milliy dasturi kuchga kirishi, yuqoridagi fikrni amalga oshirishning dastlabki bosqichi bo'lib xizmat qiladi. Ko'p bosqichli ta'lim tizimiga binoan oliygohlarda tayyorlanadigan bakalavrlar uchun o'quv rejasiga «Hayotiy faoliyat xavfsizligi» fanining kiritilishi bo'lg'usi mutaxassislarning bilimini chuqurlashtirilishiga yordam berishi so'zsizdir.

Hayotiy faoliyat xavfsizligi (HFX) fanining diqqat markaziga qo'yilgan maqsad bu insonning jamiyat taraqqiyotidagi rolidir. Hayotiy faoliyat xavfsizligi-bu har qanday sharoitdagi inson faoliyatidir. Insonning hamma faol harakati (mehnat jarayonida, dam olishda, uyda hamda sportda) uning faoliyatini tashkil qiladi.

1.Hayotiy faoliyat xavfsizligi fani o'z tarkibiga inson faoliyatining atrof-muhit bilan aloqasi, mehnat faoliyatidagi xavfsizligi va favqulodda vaziyatlardagi xavfsizligi bo'limlarini qamrab olgandir. Hayotiy faoliyat xavfsizligi printsip va usullar asosida: baxtsiz, hodisalar, qurbonlar va ular natijasida kelib chiqadigan zararlarni kamaytirish masalalarini keng miqyosda qo'yadigan va hal qiladigan fandır. HFX-bu har qanday ko'rinishdagi faoliyatga qo'llanishi mumkin bo'lgan xavfsizlikning nazariy asosidir.

«Hayotiy faoliyat xavfsizligi» kursi bo'lg'usi mutaxassislarni mehnat muhofazasining ilmiy asoslariga doir bilimlar bilan qurollantirish va ularda ishlab chiqarishdagi mehnat sharoiti hamda mehnat muhofazasini yaxshilash muammolarini ijobiy hal etishga qiziqish uyg'otishga mo'ljallangan. Buning ilmiy zamini esa quyidagilardan iboratdir.: ishlab chiqarishda shikastlanish, kasalliklar, ishlab chiqarishda sodir bo'ladigan yong'in hamda portlashlar sabablarini har tomonlama tahlil qilish; ishlab chiqarishdagi xavflilik va zararlilik darajasini o'rganish; to'qimachilik, paxta, ipak va engil sanoatda qabul qilingan yoki joriy etishga tavsiya etiladigan, og'ir hamda sermehnat ishlarni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishni ko'zda tutuvchi texnologik jarayonlarni baholash. Mazkur kurs «Ergonomika», «Muhandislik psixologiyasi», «Mehnatni ilmiy tashkil qilish», «Texnik estetika», «Mehnat fiziologiyasi va gigienasi», «Huquqshunoslik», «Iqtisodiyot», «Atrof muhitni muhofaza qilish» kabi fanlar bilan bog'langandir.

2. HFX fanining diqqat markaziga qo'yilgan maqsad bu insonning jamiyat taraqqiyotidagi roli.

Mehnat muhofazasi insonni ishlab chiqarishdagi ahvoli, u bilan bog'liq masalalarni o'rganishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Hayotiy faoliyat xavfsizligi tushunchasida ko'p uchraydigan ta'riflar bilan belgilanadi.

Faoliyat-insonning jamiyatda mavjud bo'lishi uchun kerakli sharoit. Mehnat-faoliyatning yuqori shakli. Faylasuflarning fikricha, insonning ta'rifi-harakatdagi, mehnatdagi faoliyatidir.

Mehnat va faoliyat shakllari turlicha bo'lib, ular hayotda uchraydigan aqliy, ma'naviy, madaniy, ilmiy va boshqa jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Dunyoda barcha jabhalarida ro'y berayotgan ulkan o'zgarishlar shiddatli tehnologik taraqqiyot, aholining ko'payishi va mehnat bozoridagi ehtiyoj o'zgarib borayotgan XXI asr talablariga muvofiq tarzda moslashishi uchun ta'llimga mutlaqo yangi yo'nalishuvlari taqozo etmoqda, dedi yaponiyalik ta'lim bo'yicha ekspert USHIO MUIRA .Shu sababli sifatli ta'limdan baxramand bo'lish ,bunday baxramandlik faqat maktab yoki oliy o'quv yurti doirasida cheklanib qolmasdan ,butun umr mobaynida davom etishi g'oyat muhimdir.

Fuqaro mudofaasi o'rnini bo'lishi mumkin bo'lgan yirik ko'lamdagi favqulodda vaziyatlarga avvaldan tayyorgarlikni ta'minlovchi yangi maxsus davlat tizimi egalishi bu tinchlik hamda urush davrida aholini va hududlarini favqulodda muhofaza qilish tushuniladi. Bu tizim aholini favqulodda vaziyatlarda muhofaza qilish va qutqaruv ishlarini o'tkazibgina qolmay, boshqa muhim tadbirlarini xavfli hududlarni xaritalashtirish ,seysmik mustahkam bino va inshootlarni ko'rish qisqa , o'rta , va uzoq muddatli bashoratlash ishlariga tayyorgarligini amalga oshirmoqda.

Ericson bu tashkilotlar xavfsizlik darajasini belgilaydi , uning madaniyati orqali o'zini samaralariga erishadi hisoblangan deydi .U shuningdek bir kompaniya tashkilotning uning doirasida madaniyat - bu xodimlar kutilmoqda va ma'suliyat bor uchun xavfli xatti xarakatlarni vaziyatlarni hisobot boshqarish bo'lishi kerak deb hisoblaydi.Bundan tashqari boshqaruv orqali belgilangan bo'lishi kerak. Kuzatishlar natijasining asosiy maqsadlaridan biri muntazam mas balki xavfsizlik jarayonidan namuna olish tanlab xavf xatarlar bilan bog'liq xatti xarakatlarni kuchli xavola etadi.

Hayotiy jarayonda insonni atrof-muhit va uning tashkil etuvchilari bilan o'zaro ta'siri Yu.N.Kurjakovskiyning «Hayot faqat moddalar, energiyalar va informatsiyalar oqimlarini tirik tana orqali harakati jarayonida mavjud bo'la olmaydi» degan hayotni saqlash qonuniga mos holda elementlar orasidagi moddalar massasining, barcha turdagi energiyalar va informatsiyalarning oqimlari sistemasiga asoslangan. Hayotni saqlash qonunidagi oqimlar insonga o'zini oziq-ovqatga, suvga, havoga, quyosh energiyasiga, o'rab turgan muhit haqidagi informatsiyalarga bo'lgan ehtiyojlarini qanoatlantirishi uchun kerak. SHu bilan bir vaqtda inson hayotiy fazasida o'zidan ongli faoliyati bilan aloqador (mexanik, intellektual energiyalar), biologik jarayon chiqimlari ko'rinishidagi ma'lum massadagi moddalar oqimini, issiqlik energiya va boshqa energiya oqimini ajratadi.

Moddalar va energiyalar oqimi almashinuvi inson ishtirok etmaydigan jarayonlar uchun ham xarakterlidir. Tabiiy muhit bizning planetamizga quyosh energiyasi oqimi kirib kelishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida biosferada o'simlik va hayvonlar oqimini, moddalar (havo, suv) adiabatik oqimini, har xil energiyalar oqimini, jumladan favqulodda holatlarda tabiiy

muhitdagi energiyalar oqimini ro'yobga keltiradi. Texnosfera uchun barcha turdagi xom ashyo va energiyalar oqimi, mahsulotlar va odamlar navbati oqimlarining har xilligi; chiqindi oqimlari (atmosfera tashlanayotgan chiqindilar, suv hovzalariga tashlanayotgan sanoat va boshqa iflos suvlar, suyuq va qattiq chiqindilar, har xil energetik ta'sirlar) xarakterlidir.

Xavfsizlik - bu faoliyatning holati bo'lib, ma'lum ehtimollikda xavflarning kelib chiqishini bartaraf qilishdir. Faoliyat xavfsizligi qadim zamonlardan to hozirgi kunimizga qadar insoniyatni ilmiy va amaliy qiziqishlarining eng muhim bir tomonidir. Odamzot har doim o'zining xavfsizligini ta'minlashga intiladi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan bu masalalar maxsus bilimlarni talab qiladi. Bizning davrimizda xavfsizlik muammolari yanada keskinlashdi. Ma'lumki baxtsiz hodisalar, yong'inlar, avariya va talofatlardan katta miqdorda zarar ko'riladi.

Shuning uchun xavflardan himoyalash masalalarida odamlarni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Jamiyatimizni barqarorlashtirishda bu fan muhim ijtimoiy rol o'ynaydi va xalq xo'jaligi faoliyatining xavfsizligi darajasini oshirishga ulkan hissa qo'shadi. Faoliyat jarayonining modeli ikki elementdan: inson va muhitdan tashkil topgan deyish mumkin, chunki faol faoliyat bilan faqat insonlar shug'ullanadi va ular o'zlarini o'rab turgan atrof muhit bilan yaqin

Jahonda kiberxavfsizlik masalalarida AQShning faolligi ko'p jihatdan kiberxavfsizlik masalalariga qiziqish kuchayib bormoqda. So'nggi yillarda Vashington bu sohada bir qator muhim ko'rsatma va hujjatlarni qabul qilib, muammoning xalqaro shartnoma jihatlariga ham - avval NATO doirasida, so'ngra Moskva bilan muloqotda e'tibor qarata boshladi. Biroq, bu AQSh emas, balki bu sohada, birinchi navbatda, BMTda, shuningdek, boshqa mintaqaviy va ikki tomonlama platformalarda global xavfsizlik masalalarini xalqaro muhokama qilish tashabbusi bilan chiqqan Rossiya edi. Shu bilan birga, axborot xavfsizligining Rossiya va Amerika modellari, ularning har biri dunyoda o'z tarafdorlarini topadi, kiber tahdidlarni tushunishda faqat bitta umumiy nuqtaga ega.

So'nggi paytlarda siyosatchilar va ekspertlarning kiberxavfsizlik masalasiga qiziqishi sezilarli darajada oshdi. Bu ko'p jihatdan texnologik va harbiy etakchiligini saqlab qolgan AQShning kiberxavfsizlik sohasidagi siyosiy va harbiy faoliyatni tartibga soluvchi eng yuqori darajadagi bir qator ko'rsatma va rasmiy hujjatlarni qabul qilgani bilan bog'liq. Ular orasida" kiber siyosatni ko'rib chiqish kiberxavfsizlik bo'yicha xalqaro strategiya va mudofaa vazirligining kiberxavfsizlik sohasidagi harakatlar strategiyasi 2011 alohida ajralib turadi. Shu bilan birga, B. prezidentligi davrida. Qo'shma Shtatlar bu muammoning xalqaro shartnoma jihatlariga e'tiborni oshira boshladi. Vashingtonning kiberxavfsizlik va kiberxavfsizlik borasidagi faoliyati bu masalaga xalqaro qiziqishning keskin ortishiga olib keldi. Kiberxavfsizlik jahon ommaviy axborot vositalarida, turli xalqaro platformalarda va turli formatlarda muhokama qilinayotgan eng dolzarb siyosiy masalalardan biriga aylandi. Biroq bu AQSh emas, balki Rossiya edi, bu birinchilardan bo'lib axborot makonini harbiylashtirish bilan bog'liq xavf-xatarlarni va undagi noqonuniy faoliyatni amalga oshirdi. U bu sohada global xavfsizlik masalalari xalqaro muhokama tashabbusi, uning harbiylashtirish oldini olish va Internet kosmosda terrorizmga qarshi. 1998-yilda Rossiya AQShga axborot xavfsizligi bo'yicha prezident bayonotini imzolashni taklif qildi [5]. Hujjat loyihasi ushbu sohadagi muammolar va tahdidlarni birgalikda aniqlash, konseptual asosni ishlab chiqish, BMTning global axborot xavfsizligi masalasini, shu jumladan, muammoning

qurolsizlanish jihatlarini taqdim etish, shuningdek, axborot terrorizmi va jinoyatchilikka qarshi kurash bo'yicha xalqaro ko'p tomonlama shartnomani ishlab chiqishni nazarda tutgan. Bayonoma loyihasining muhokamasi tomonlar o'rtasida yaqinlashishga olib kelmadi, lekin eng umumiy shaklda axborot xavfsizligi "XXI asr navbatidagi umumiy xavfsizlik muammolari bo'yicha Qo'shma bayonotda" qayd etildi.

BMT doirasida xalqaro axborot xavfsizligi mavzusi yanada rivojlantirildi. 1998-yil dekabrda bosh Assambleya (ga) konsensus yo'li bilan (ovoz berishsiz) Rossiya tomonidan tayyorlangan "xalqaro xavfsizlik nuqtai nazaridan axborot va telekommunikasiya sohasidagi o'zgarishlar" (a / res/53/70 hujjati) rezolyusiyasi qabul qilindi, unda BMTga a'zo davlatlar Bosh kotibini xabardor qilish tavsiya etildi.:

- Axborot xavfsizligi masalalarini umumiy baholash;
- axborot xavfsizligi bilan bog'liq asosiy tushunchalarni aniqlash, shu jumladan axborot va telekommunikasiya tizimlari va axborot resurslarini ruxsatsiz aralashish yoki noto'g'ri ishlatish;
- global axborot-telekommunikasiya tizimlari xavfsizligini mustahkamlash va axborot terrorizmi va jinoyatchilikka qarshi kurashga hissa qo'shishga qaratilgan xalqaro tamoyillarni ishlab chiqish maqsadga muvofiqligi.

Yakuniy qaror, Rossiya tomonidan taqdim etilgan loyihasi farqli o'laroq, harbiy maqsadlar uchun axborot texnologiyalari foydalanish uchun to'g'ridan-to'g'ri murojaatlarni o'z ichiga olmadi, "axborot qurollari" va "axborot urush" tushunchalar aniq ta'riflar, yaratish va axborot qurol foydalanishni taqiqlovchi rejimini rivojlantirish zarurligini zikr, shuningdek, axborot va WMD ta'siri qurol taqqoslash bo'yicha qoidalar. Axborot kosmosda davlatlararo qarama-qarshilik oldini olish dolzarb qurolsizlanish g'oyalar va vazifalar uchun eng katta muxolifat AQSh tomonidan taqdim etildi, shuning uchun BMT Bosh Assambleyasi (qurolsizlanish va xalqaro xavfsizlik masalalari) birinchi qo'mitasi ovoz Amerika delegatsiyasi bayonot "bu targ'ib qarori asosiy homiysi tomonidan namoyish moslashuvchan" qayd etildi. Ushbu hujjatni qabul qilish orqali xalqaro hamjamiyat axborot xavfsizligini ta'minlash muammosining mavjudligini tan oldi va bu mavzu BMT Bosh Assambleyasi kun tartibiga kiritildi.

1999 - yilda Rossiya ushbu masala bo'yicha batafsil hujjat taqdim etdi, uning ko'pgina qoidalaridan "xalqaro axborot xavfsizligiga oid tamoyillar" ni tayyorlashda foydalanildi. Uning umumiy qoidalarida alohida mamlakatlarning eng yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali harbiy salohiyatining oshishi global va mintaqaviy hokimiyat balansining o'zgarishiga olib kelishi qayd etildi. Rossiya tomoni ma'lumotlariga ko'ra, fuqarolik va harbiy axborotlashtirishning global jarayonlarini xalqaro-huquqiy tartibga solish, xalqaro axborot xavfsizligi (IIB) muammosi bo'yicha muvofiqlashtirilgan xalqaro platformani ishlab chiqishda yaqqol ehtiyoj sezilmoqda. Shu bilan birga, ushbu sohada vaziyatni yanada muhokama qilish va BMT bosh Assambleyasi tomonidan jinoiy va harbiy xarakterdagi tahdidlarni cheklash bo'yicha yangi, o'ziga xos qarorlar qabul qilishni nazarda tutgan xalqaro hamjamiyatning xatti-harakatlari modeli taklif etildi. Rossiya umumiy yondashuvlar aniqlanganidek, biz birinchi navbatda ko'p tomonlama deklarasiya shaklida shakllantirilishi mumkin bo'lgan IIB (davlatlar uchun rejim va axloq kodeksi) tamoyillarini ishlab chiqish ustida ishlashimiz va kelajakda xalqaro huquqiy hujjat shaklida mustahkamlanishimiz kerakligini taklif qildi.

Rossiya tashabbuslarini turli formatlarda muhokama qilish axborot xavfsizligi muammosiga ikki asosiy yondashuvni aniqlashga imkon berdi.

AQSh va Evropa terroristik va jinoiy tahdidlarga nisbatan axborot xavfsizligi choralarini ishlab chiqishni eng muhim deb hisobladi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv tarafdorlari axborot qurollari va axborot urushini yaratish istiqbolini juda nazariy deb hisobladilar. Shunga ko'ra, IIB umumiy muammosining haqiqiy qurolsizlanish jihati ham yo'qoldi. Evropa kiberjinoiyatlarga qarshi kurash Konvensiyasini ishlab chiqishga e'tibor qaratgan bo'lsa, qo'shma Shtatlar axborot urushining barcha jihatlariga e'tibor berar ekan, xalqaro kelishuvlarga erishish uchun kam harakat qildi.

Har qanday xo'jalik yuritishning chiqindilari va teskari samarasi bo'ladi va ularni yo'qotib bo'lmaydi. Ularni bir fizik-ximik shakldan boshqa shaklga o'tkazish yoki fazoga chiqarib yuborish mumkin. Texnosfera, bundan tashqari to'satdan portlash, yong'in natijasida, qurilish konstruksiyalarini buzilishida, transport avariylarida va shunga o'xshashlarda katta miqdordagi chiqindilar va energiya oqimini yuzaga keltirishi mumkin.

Ijtimoiy muhit tabiiy va texnogen olamni o'zgartirishga yo'naltirilgan insonga xarakterli bo'lgan barcha energiya oqimlarini ishlab chiqaradi va iste'mol qiladi, jamiyatda chekish, alkogol ichimliklar, narkotik moddalar va shunga o'xshashlarni iste'mol qilishga aloqador zararli holatlarni shakllantiradi.

«Inson- atrofmuhit» sistemasini har xil komponentlari energiya va informatsiyalarini xarakterli massalar oqimini quyida keltiramiz:

Tabiiy muhitning asosiy oqimlari.

- quyosh nurlanishi, yulduz va planetalar nurlanishi;
- kosmik nurlar, chang, asteroidlar;
- urning elektr va magnit maydoni;
- ekosistemalarda, biosferada moddalar aylanishi;
- atmosfera, gidrosfera va litosfera holatlari shu jumladan favqulodda holatlar;
- boshqalar.

Texnosferadagi asosiy oqimlar.

- xomashyolar, energiyalar oqimi;
- iqtisod sohasi mahsulotlarining oqimi;
- iqtisod sohasi chiqindilari;
- maishiy chiqindilar;
- informatsiya oqimlari;
- transport oqimlari;
- yorug'lik oqimi (sun'iy yoritish);
- moddalar va texnogen avariylardagi energiya oqimlari;
- boshqalar.

Ijtimoiy muhitdagi asosiy oqimlar.

- informatsiya oqimlari (o'qitish, davlat boshqaruvi, xalqaro hamkorlik boshqalar);
- odamlar oqimi (demografik portlash, aholi urbanizatsiyasi);
- narkotik , alkogol vositalar va boshqa oqimlari;
- boshqalar.

Hayot faoliyat jarayonida inson iste'mol qiladigan va chiqaradigan asosiy oqimlar.

- kislorod, oziq-ovqat, suv va boshqa moddalar (alkogol, tamaki, narkotiklar) oqimlari;
- energiyalar oqimi (mexanik, issiqlik, quyosh va boshqalar);
- informatsiya oqimlari;
- hayot faoliyat jarayonidagi chiqindilar oqimi;
- boshqalar.

Dam olish va ish jarayoni to'g'ri takrorlanib turishi shikastlanishlar oldini olishning birdan bir asosiy shartidir. Kishining ish qobiliyati uning sezgirligiga, ishlab chiqarishdagi har xil xavfli va zararli omillarga ta'sirchanligiga, ish jarayonining uzluksizligiga bog'liqdir.

Agar ishlar ma'lum ketma-ketlikda bajarilsa har qanday ishlar ham mahsuldor va kam charchashli bo'lishi olimlar tomonidan maxsus tadqiqotlar orqali aniqlangan; ishchi ritm, yuqori mehnat qobiliyatini va muvozanatini o'zlashtirish juda muhimdir; mehnat faoliyati unumdorligini oshirishda bajariladigan ish bo'yicha tajriba, mashk qilinganlik katta ahamiyatga ega bo'lib, bunda ishchi aqliy va jismoniy mehnatni kam sarflab ishni avtomatik tarzda bajarishi mumkin. Mehnat qobiliyatini va birinchi navbatda sog'likni saqlashning muhim omillaridan biri organizm tomonidan o'zlashtirilgan ma'lum mehnat faoliyati tezligi va ritmiga rioya qilish muhim ahamiyatga ega. Bunda ayniqsa ishning optimal ritmda bajarilishi yuqori mehnat unumdorligining asosi hisoblanadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI:**

1. O'zbekiston Respublikasining Mexnatni muxofaza qilish to'g'risidagi qonuni. Toshkent, 1993 y.
2. I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asr busag'asida: Xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. O'zbekiston 1997 y.
3. Goipov X.E. Mexnat muxofazasi. Toshkent, "Mexnat", 2000 y.
4. Otaxonov M. Qurilishda Mexnat muxofazasi va xavfsizlik texnikasi. Toshkent, "Mexnat",